



ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASINI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHGA QARATILGAN IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI TAHLILI.

Tolibov Mirshod Mirjon o‘g‘li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

Zarafshon iqtisodiy mintaqasi (Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari) mamlakat iqtisodiyotining sanoat va agroturistik drayveri hisoblanadi. Biroq, zamonaviy iqtisodiy o‘shish faqatgina yalpi mahsulot hajmi bilan emas, balki aholining yashash sifati va ijtimoiy barqarorlik bilan o‘lchanmoqda. Shu sababli, mintaqani rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda "Ijtimoiy taraqqiyot orqali iqtisodiy barqarorlik" (Inclusive Growth) tamoyili asosiy o‘rin tutadi. Takomillashtirilgan strategiya – bu hududiy resurslar, sanoat salohiyati va inson kapitalini yagona zanjirga birlashtiruvchi uzoq muddatli yo‘l xaritasidir. Strategiyani takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ko‘rsatish mumkin:

1. Inson kapitalini sanoat klasterlari bilan integratsiya qilish Mintaqada barqaror o‘shishga erishish uchun ta‘lim tizimi bevosita hududiy ixtisoslashuvga moslashtirilishi lozim. Navoiy viloyatidagi kon-metallurgiya va kimyo sanoati, Samarqanddagi mashinasozlik va turizm tarmoqlari uchun "mahalliy kadrlar buyurtmasi" tizimini joriy etish strategiyaning ustuvor vazifasidir. Bu nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki mehnat unumdorligini ham oshiradi.

2. Ijtimoiy infratuzilmani raqamli modernizatsiya qilish Strategiyaning muhim qismi – "Aqlli hudud" (Smart Region) konsepsiyasini joriy etishdir. Raqamli ijtimoiy xizmatlar, masofaviy ta‘lim va telemeditsinani chekka tumanlarga (masalan, Nurota yoki Kattaqo‘rg‘on tumanlari) yoyish orqali shahar va qishloq o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutni qisqartirish ko‘zda tutiladi.

3. "Yashil" bandlik va ekologik barqarorlik Zarafshon daryosi havzasidagi ekologik holatni hisobga olgan holda, strategiya doirasida "yashil iqtisodiyot" loyihalarini qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy ahamiyatga ega. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bilan birga, mintaqaning ekologik xavfsizligini ta‘minlaydi.

Mintaqaviy rivojlanish strategiyasini takomillashtirish quyidagi jihatdan o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi:

- Strategiya doirasida sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining diversifikatsiya qilinishi mintaqa iqtisodiyotining tashqi shoklarga (global inqirozlar, narx o‘zgarishi) chidamliligini oshiradi. Inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar esa uzoq muddatli YaHM o‘shishini kafolatlaydi.

- Kambag‘allikni qisqartirishning "manzilli modeli" orqali aholining ehtiyojmand qatlamlari iqtisodiy faollikka jalb qilinadi. Bu jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi va migratsiya bosimini kamaytiradi.

- Hududiy tafovutlarning kamayishi mintaqaning yaxlit iqtisodiy makon sifatida rivojlanishiga, tumanlararo kooperatsiya aloqalari kuchayishiga xizmat qiladi.

Mavjud ma'lumotlar asosida Zarafshon mintaqasining SWOT tahlili amalga oshirilib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kuchli tomonlar (Strengths):

-Iqtisodiy o'sish va ish haqi darajasi: 2019–2024 yillarda Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ish haqi darajasi sezilarli o'sdi (masalan, Navoiyda 2,448,655 so'mdan 5,667,793 so'mga oshdi), bu mintaqada ishlab chiqarish va xizmatlar tarmoqlarining rivojlanishini aks ettiradi.

-Bandlik darajasining barqarorligi: Mintaqada bandlik darajasi Buxoro va Navoiyda 67–70% oralig'ida barqaror, ish bilan ta'minlangan aholi ulushi yuqori.

-Ishsizlik darajasining kamayishi: 2019–2024 yillarda ishsizlar soni Buxoro viloyatida 78,3 mingdan 45,1 minggacha, Navoiyda 38,2 mingdan 22,5 minggacha, Samarqandda 148,4 mingdan 86,4 minggacha kamaydi.

-Inson kapitalining mavjudligi: Mehnat resurslari soni mintaqada barqaror o'sish ko'rsatadi, Buxoro (1,081 → 1,085 ming), Navoiy (555,8 → 597,4 ming), Samarqand (2,117 → 2,190,9 ming).

-Sog'liqni saqlash infratuzilmasi: Shifokorlar soni 10 000 aholiga nisbatan doimiy o'sish ko'rsatmoqda, Buxoro 30,9 → 32,3, Navoiy 29,1 → 30,5, Samarqand 24,9 → 26,7.

2. Zaif tomonlar (Weaknesses):

-Viloyatlar kesimida ish haqi va daromadlar tafovuti: Navoiy viloyatida ish haqi va daromad yuqori bo'lsa, Samarqand va Buxoroda nisbatan past, bu hududlararo iqtisodiy tengsizlikni ko'rsatadi.

-Aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi: Jini koeffitsienti 0,262 → 0,286 gacha oshgan, bu daromadlar notekisligi va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash zarurligini bildiradi.

Samarqand viloyatida nisbatan past iqtisodiy faollik: Aholining iqtisodiy faollik darajasi past (68,5–72,1%), bu mehnat bozorida faol qatnashuvni va malakali ishchi kuchini jalb qilish zaruratini ko'rsatadi.

-Kichik biznesning rivojlanishidagi tafovut: Navoiyda kichik tadbirkorlik subyektlari bandlikdagi ulushi past (55 → 52,3%), iqtisodiy diversifikatsiya va kichik biznesni rivojlantirishga ehtiyoj bor.

3. Imkoniyatlar (Opportunities) :

-Iqtisodiy diversifikatsiya va yangi ish o'rinlarini yaratish: Navoiy va Buxoro sanoat va xizmatlar sohalarini kengaytirish orqali ish o'rinlarini ko'paytirish imkoniyati mavjud.

-Inson kapitalini rivojlantirish: Aholining malaka oshirish dasturlari, kasb-hunar va oliy ta'lim orqali mintaqada yuqori malakali ishchi kuchini shakllantirish.

-Kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: Samarqand va Buxoroda kichik biznes asosidagi ish o'rinlarini ko'paytirish, Navoiyda kichik biznesni rag'batlantirish orqali bandlikni oshirish.

-Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish: Sog'liqni saqlash infratuzilmasini yanada rivojlantirish, pensiya va ijtimoiy nafaqa tizimini takomillashtirish.

-Turizm va xizmatlar sektorini rivojlantirish: Samarqand va Buxoroda xizmatlar va turizm sohalarini kengaytirish orqali daromadlarni oshirish.

4. Xavf va tahdidlar (Threats):

-Hududlararo iqtisodiy tafovutning kuchayishi: Navoiyning yuqori daromad va ish haqi bilan farq qilishi, boshqa viloyatlar aholisi migratsiyasiga va ijtimoiy keskinlikka olib kelishi mumkin.

-Aholi daromadlarining notekisligi: Jini koeffitsientining oshishi ijtimoiy nohaqlik va kambag'allikni kuchaytirishi mumkin.

-Ishchi kuchining malakasizligi: Malakali ishchi kuchi yetishmasligi, ayniqsa Samarqand viloyatida, iqtisodiy faollik va bandlikni pasaytirishi mumkin.

-Global iqtisodiy o'zgarishlar va inflyatsiya: Hududdagi real daromad va bandlik global narxlar o'zgarishiga, inflyatsiyaga va tashqi talabga bog'liq bo'lishi mumkin.

-Ijtimoiy xizmatlar va sog'liqni saqlash tizimining yetarli emasligi: Agar mintaqada ijtimoiy himoya tizimi va sog'liqni saqlash xizmatlari samarali ishlamasa, aholi farovonligi pasayadi va ishchi kuchi samaradorligi kamayadi.

Zarafshon mintaqasi, ya'ni Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha muhim salohiyatga ega hududdir. SWOT tahlil natijalari mintaqada kuchli va zaif tomonlar mavjudligini ko'rsatadi. Kuchli tomonlarga bandlikning yuqoriligi, ish haqi o'sishi va sog'liqni saqlash infratuzilmasining rivojlanganligi kiradi. Zaif tomonlar esa hududlararo iqtisodiy tafovut va malaka yetishmovchiligi bilan bog'liq.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son (<https://lex.uz/uz/docs/-5841063>)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli Farmoni O'zbekiston — 2030" strategiyasi (<https://lex.uz/docs/-6600413>)

3. Sadovina, D. E., & Ispulova, S. N. (2025). Social protection of elderly citizens: social security resources provision. *Social'naja Politika i Social'noe Partnerstvo (Social Policy and Social Partnership)*, 2, 119–134. <https://doi.org/10.33920/pol-01-2502-07>

4. Антонова, Н.В. (2023). Пенсионное обеспечение на территориях со специальным климатом: проблемы теории и практики. Пробелы в российском законодательстве, 16 (7), 52–56. <https://doi.org/10.33693/2072-3164-2023-16-7-052-056>



5. Rusak, H. W. (2022). Pension provision in the system of social protection of the population. *Analytical and Comparative Jurisprudence*, 1, 109–112. <https://doi.org/10.24144/2788-6018.2022.01.20>

6. Contreras, D., Bhamidipati, S., & Wilkinson, S. (2023). Social vulnerability and spatial inequality in access to healthcare facilities: The case of the Santiago Metropolitan Region (RMS), Chile

